

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/6--SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.M.Maxmutaliyev	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kuch jismoniy sifati va uni tarbiyalash uslublari	111
G.S.Sidiqova	
Hozirgi kun jismoniy madaniyat yo'riqchilarining klassifikatsiyasi	118
X.X.Xaydaraliyev	
O'quv mashg'ulotlari davomida talabalarda vatanparvarlik fazilatlarini rivojlantirish metodikasini takomillshatirish	123
R.A.Hamroqulov	
Salomatlik testi talab va me'yorlarini topshirish bo'yicha mashg'ulotlarni tashkillash	128
E.I.Allomov	
Maktab o'quvchilari harakat faoliyatining yoshga xos me'yorlari	134
T.A.Eshimov	
Kasb - hunar maktablari o'quvchilarining jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlari tahlili	141
Sh.M.Robilova	
O'quvchi-qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash samaradorligi	147
Q.M.Xakimov	
Yosh voleybolchilarda jismoniy ish qobiliyati va uning funksional komponentlarini shakllantirish masalalari	150
Sh.V.Djalalov	
O'rta yoshdagi qizlarda egiluvchanlikni rivojlantirish metodikasi (5–9-sinflar) jismoniy tayyorgarlikning tabaqalashtirilgan tizim asosida	155
X.M.Sotvaldiyeva	
Ingliz tili darslarida og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish usullari	159
S.I.Quziyev	
Ingliz tilini o'qitishda smart ta'lim texnologiyalari orqali virtual turizmni takomillashtirishning pedagogik usullari	162
N.K.Ergasheva	
Methodology and outcomes of english language teaching	168
M.Axmedova	
Maxsus yo'nalish talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning roli	172
G.Astonova	
Germaniyada ta'lim tizimini boshqarishning hududiy xususiyatlari	176
G.R.Astonova, M.M.Kaharova	
Germaniya va O'zbekiston ta'lim tizimida o'xshash va farqli jihatlar	179
N.A.Abduvaliyeva, U.Sh.Abduvoxidova	
Nutq o'stirishning metodik usullari	183
M.S.Ro'ziboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bag'rikenglik dunyoqarashini tarbiyalash: nazariy va amaliy yondashuvlar	188
N.N.Nabiyeva	
Triz texnologiyasi vositasida ta'lim oluvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish mazmun va mohiyati	193
D.I.Asqarova	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlar yangicha yondashuvlar	197
D.T.Yuldasheva	
Maktabgacha yoshdagi bolalar kognitiv faoliyatini rivojlantirishda neyropedagogikaning imkoniyatlari	202
Y.A.Mirzaboyev	
Nostandart masalalar orqali bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlikni rivojlantirish metodikasi	206
R.Sh.Sharofutdinova	
Ko'zi ojiz o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik, ijtimoiy xususiyatlari	210



UO'K: 371.3:378

**MAXSUS YO'NALISH TALABALARINING ESHITISH KO'NIKMALARINI
RIVOJLANTIRISHDA AUTENTIK MATERIALLARNING ROLI****РОЛЬ АУТЕНТИЧНЫХ МАТЕРИАЛОВ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ АУДИРОВАНИЯ
СТУДЕНТОВ СПЕЦИАЛЬНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ****THE ROLE OF AUTHENTIC MATERIALS IN DEVELOPING LISTENING SKILLS OF
SPECIALIZED STUDENTS****Axmedova Miyassar** 

Fergana State University, English Language Department

Annotatsiya

Ushbu maqola chet tilida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda autentik materiallarning ahamiyatini o'rganadi. Maxsus yo'nalishdagi talabalar, masalan, texnika yoki tibbiyot sohalarida, real hayotga yaqin materiallardan foydalanish orqali o'z kasbiy ehtiyojlariga mos keluvchi ko'nikmalarni egallashlari kerak. Autentik materiallar, jumladan, audio, video va yozma materiallar, talabalarni haqiqiy vaziyatlarda muloqot qilishga tayyorlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bunday materiallar talabalarning motivatsiyasini oshiradi, yangi leksik va grammatik tuzilmalarni o'rganishga yordam beradi. Shuningdek, autentik materiallar talabalarning tinglab tushunish ko'nikmalarini mustahkamlash va turli aksentlar, talaffuzlar bilan tanishtirishda samarali. Kelgusidagi tadqiqotlar autentik materiallardan foydalanish strategiyalarini kengaytirish va ularni turli darajalarga moslashtirish muhimligini ta'kidlaydi. Maqola, shuningdek, autentik materiallarning ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishdagi ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Аннотация

В данной статье исследуется важность аутентичных материалов в развитии навыков аудирования на иностранном языке. Студенты специализации должны приобретать навыки, соответствующие их профессиональным потребностям, например, в области инженерии или медицины, за счет использования материалов, приближенных к реальной жизни. Аутентичные материалы, включая аудио-, видео- и письменные материалы, играют важную роль в подготовке учащихся к общению в реальных ситуациях. Результаты исследования свидетельствуют о том, что такие материалы повышают мотивацию студентов, помогают им осваивать новые лексические и грамматические конструкции. Аутентичные материалы также эффективны для укрепления навыков восприятия речи на слух у учащихся и ознакомления их с различными акцентами и произношением. Будущие исследования подчеркивают важность расширения стратегий использования аутентичных материалов и их адаптации в разной степени. В статье также показана важность аутентичных материалов в том, чтобы сделать образовательный процесс интересным и эффективным.

Abstract

This article explores the importance of authentic materials in the development of listening comprehension skills in a foreign language. Majoring students should acquire skills that match their professional needs, for example, in the fields of engineering or medicine, through the use of materials that are close to real life. Authentic materials, including audio, video, and written materials, play an important role in preparing students to communicate in real-world situations. The results of the study indicate that such materials increase the motivation of students, help them to learn new lexical and grammatical structures. Authentic materials are also effective in strengthening students' listening comprehension skills and introducing them to different accents and pronunciations. Future research highlights the importance of expanding strategies for the use of authentic materials and adapting them to different degrees. The article also shows the importance of authentic materials in making the educational process interesting and effective.

Kalit so'zlar: Autentik materiallar, tinglab tushunish ko'nikmalari, maxsus yo'nalish talabalari, chet tili ta'limi, didaktik vositalar.

Ключевые слова: Аутентичные материалы, навыки аудирования, студенты специальностей, обучение иностранному языку, дидактические средства.


Key words: Authentic materials, listening skills, specialized students, foreign language teaching, didactic tools.

KIRISH

Bugungi kunda chet til ta'limida tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Maxsus yo'nalish talabalarining kasbiy ehtiyojlarini qondirish uchun real hayotga yaqin bo'lgan til materiallaridan foydalanish zarur. Autentik materiallar ushbu ehtiyojni qondirishga xizmat qiluvchi samarali vositalardan biridir. Ushbu maqolada autentik materiallarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati o'rganildi.

Mavzuning asosiy qismini yoritishdan avval maxsus yo'nalishlarga chet til o'qitish deganda nima tushuniladi degan savolga javob berib o'tsak. Maxsus yo'nalishlarga chet til o'qitish bu, talabalarni o'z kasbiy sohalarida samarali muloqot qila olishlari uchun maxsus mo'ljallangan chet tili ta'limi usulidir. Bu jarayon talabalar o'rganayotgan sohalarining ehtiyojlariga moslashtirilgan holda tashkil etiladi. Masalan, texnika, tibbiyot, iqtisodiyot yoki pedagogika kabi maxsus yo'nalishlar uchun chet tili darslari ushbu sohalar uchun xos bo'lgan terminologiya, kasbiy muloqot usullari va madaniyatni qamrab oladi. Ushbu yondashuv talabalarni nafaqat umumiy til ko'nikmalariga, balki o'z sohalarida chet tilidan faol foydalanishga ham tayyorlaydi.

Maqolada ishlatilgan yana bir tayanch tushuncha bu autentik materiallar atamasidir. Avvalo tushunishimiz kerakki, dars mashg'ulotlarida ikki xil materiallardan foydalaniladi:



1-rasm. Chet til o'qitishda foydalaniladigan materiallarning turlari

Autentik material deganda real hayotiy vaziyatlarda qo'llaniladigan va o'quvchilarga chet tilini tabiiy muhitda o'rganish imkonini beradigan materiallar tushuniladi. Bular odatda tilni asl kontekstida qo'llanishini namoyish qiluvchi materiallar bo'lib, ular tilni o'quv maqsadlari uchun maxsus tayyorlanmagan bo'lishi kerak. Masalan:

- Audio materiallar: Radio eshittirishlari, podkastlar, musiqiy kompozitsiyalar.
- Video materiallar: Filmlar, intervyular, hujjatli filmlar, vloglar.
- Yozma materiallar: Gazeta maqolalari, blog yozuvlari, reklama bannerlari, ishga oid hujjatlar.

- Og'zaki materiallar: Suhbatlar, nutqlar yoki konferensiyalar.

Autentik materiallar talabalarni chet tilini haqiqiy hayotda qanday ishlatilishini ko'rishga undaydi va ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu materiallar tilni kontekstda o'rganishni ta'minlab, talabalarning eshitish va tushunish ko'nikmalarini samarali ravishda rivojlantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Autentik materiallar chet tili ta'limida asosiy didaktik vositalardan biri sifatida tan olingan. Adabiyotlarda ularning asosiy afzalliklari sifatida talabalarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash, muloqot qobiliyatlarini oshirish va tilni o'zlashtirishni samarali qilish ko'rsatib o'tilgan. Brown o'z

tadqiqotida autentik materiallarning talabalarining o'rganishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishini va tilni tabiiy usulda o'zlashtirishga yordam berishini ta'kidlaydi [1, 127]. T.Akramova esa autentik materiallarni o'quvchilarning til qobiliyatlarini kontekstda rivojlantiruvchi eng muhim resurslar sifatida tavsiflagan [2, 130].

D. Kenjayeva autentik materiallarning eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlab, bu materiallarning talabalarga turli aksentlar, talaffuz va nutq sur'atlarini o'rganishda ko'maklashishini qayd etadi. Bu, ayniqsa, maxsus yo'nalish talabalariga kasbiy ehtiyojlariga mos nutqni tinglab tushunishga yordam beradi [3, 365].

D.Bektosheva adabiyotlarida autentik materiallarning didaktik jihatlari, jumladan, tinglab tushunish mashg'ulotlarini jonli va qiziqarli qilish imkoniyatini berishi, shuningdek, yangi leksik va grammatik tuzilmalarni tabiiy kontekstda o'rganishga sharoit yaratishi muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan [4, 18].

Shuningdek, tadqiqotlar autentik materiallardan foydalanishning qiyinchiliklarini ham o'z ichiga oladi [5, 134]. Bunga talabalarni murakkab yoki yuqori darajadagi materiallar bilan ishlashga moslashtirish zarurati kiradi. Shunga qaramay, bunday materiallardan foydalanish chet tilini amaliy va muloqotga yo'naltirilgan usulda o'rgatishga yordam beradi.

Umuman olganda, adabiyotlarda autentik materiallardan foydalanishning samaradorligi va amaliy afzalliklari ko'p jihatdan ilmiy isbotlangan bo'lib, ular talabalarni muloqot qilishga va eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishga tayyorlashda o'ta muhim vosita ekanligi ta'kidlanadi.

Autentik materiallar real hayotiy vaziyatlarni aks ettiruvchi va o'quvchilarning muloqotga tayyorgarligini oshiruvchi vositalar sifatida tan olingan. Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ular talabalarining eshitish ko'nikmalarini rivojlantirishda bir qancha afzalliklarni taqdim etadi:

- Yangi leksik va grammatik tuzilmalarni kontekstda o'rgatadi.
- Talabalarni madaniy jihatdan o'qitish imkoniyatini yaratadi.

Metodologik jihatdan, autentik materiallardan foydalanish talabalarining tinglash ko'nikmalarini tahlil qilish uchun eksperimental guruh bilan olib borildi. Guruh o'quvchilari autentik audio va video materiallardan foydalangan holda dars jarayonini o'tkazdilar.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Autentik materiallardan foydalanish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari ularning tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqladi. Quyida asosiy natijalar va ular yuzasidan muhokamalar keltirilgan.

Birinchidan, talabalar real vaziyatlarda muloqot qilishga tayyor bo'ldi. Bu shuni anglatadiki, autentik materiallar talabalarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarga moslashtirdi. Ular turli aksentlar, talaffuzlar va nutq tezliklariga moslashishni o'rgandilar. Bu maxsus yo'nalish talabalari uchun, masalan, texnik, iqtisodiy yoki pedagogik sohaga xos nutqiy vaziyatlarni tushunishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bunday tajriba talabalarni o'z kasbiy sohalarida samarali muloqot qilishga tayyorlashga yordam berdi [6].

Ikkinchidan, autentik materiallar talabalarining o'quv motivatsiyasini oshirdi. Talabalar real hayotga yaqin bo'lgan materiallar bilan ishlash jarayonida darslarni yanada qiziqarli va maqsadli deb topdilar. Bu ularning chet tilini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi. Darslar davomida talabalar o'zlarini haqiqiy nutqiy muhitda his qildilar, bu esa ularning faolligini va ishtirokini yanada kuchaytirdi.

Uchunchidan, tinglab tushunish jarayonida leksik va grammatik ko'nikmalar mustahkamlandi. Autentik materiallar orqali talabalar yangi leksika va grammatik tuzilmalarni tabiiy kontekstda o'zlashtirdilar. Radio eshittirishlari, filmlar va vloglar kabi materiallar turli til birliklarini qanday ishlatishni ko'rsatdi. Bu esa tilni nafaqat grammatik jihatdan, balki ma'no va muloqot kontekstida o'rganishga imkon yaratdi.

Keyingi afzallik tomoni bu, tinglab tushunish qobiliyatining sezilarli o'sishi hisoblanadi. Eksperimental guruhda o'qigan talabalar tinglash qobiliyatlarida sezilarli o'sishga erishdilar. Bu jarayonda talabalarining o'rganayotgan materiallarini qayta eshitib, ularni muhokama qilishi muhim rol o'ynadi. Talabalar faqat ma'noni tushunibgina qolmay, balki til birliklarining talaffuziga ham e'tibor qaratishdi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, autentik materiallar nafaqat tilni o'rganishni osonlashtiradi, balki talabalarni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda tilni samarali ishlatishga tayyorlaydi. Maxsus yo'nalish talabalari uchun autentik materiallar kasbiy ehtiyojlarni qondirishda muhim vosita sifatida o'z o'rnini

PEDAGOGIKA

topdi. Talabalar amaliy muloqotga yo'naltirilgan topshiriqlar orqali nafaqat o'qituvchi bilan, balki bir-birlari bilan ham faol muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Shuningdek, autentik materiallardan foydalanishda ba'zi qiyinchiliklar ham kuzatildi. Murakkab va yuqori darajadagi materiallar ba'zi talabalar uchun qiyinchilik tug'dirgan bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi bunday materiallar bilan ishlash natijasida o'zlarining eshitish qobiliyatlarini rivojlantirdi. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun materiallarni talabalar darajasiga moslashtirish yoki ularni ketma-ket murakkablashtirish taklif etiladi.

Autentik materiallar quyidagi didaktik afzalliklarni taqdim etdi:

- Darslarni jonli va qiziqarli qiladi.
- Yangi so'z boyligi va grammatik tuzilmalarni tabiiy ravishda o'rgatadi.
- Talabalarni turli madaniy va nutqiy jihatlariga tayyorlaydi.
- Tinglab tushunish ko'nikmalarini chuqurlashtiradi va talabalarni real vaziyatlarga tayyorlaydi.

Tadqiqot davomida autentik materiallarning chet tilini o'qitishda, ayniqsa, maxsus yo'nalish talabalarining tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita ekani isbotlandi. Ushbu materiallar talabalarni kasbiy ehtiyojlariga mos muloqotga tayyorlash bilan birga ularning umumiy til o'rganish jarayonini ham qiziqarli va samarali qiladi.

Kelgusidagi tadqiqotlarda autentik materiallardan foydalanish strategiyalarini kengaytirish va ulardan foydalanishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengish yo'llarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ularni turli fanlar va o'quv darajalari uchun moslashtirish istiqbollari ham tadqiqot mavzusi bo'lishi mumkin.

XULOSA

Autentik materiallar maxsus yo'nalishdagi talabalarni tinglab tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, ularning kasbiy ehtiyojlariga mos keluvchi real vaziyatlarda samarali muloqot qilish qobiliyatlarini oshirishga katta yordam beradi. Ushbu materiallar nafaqat tilni tabiiy kontekstda o'rgatadi, balki o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, yangi leksika va grammatik tuzilmalarni mustahkamlash, turli talaffuz va nutq sur'atlarini o'zlashtirishga imkon yaratadi. Bizning o'rganishlarimiz davomida ma'lum bo'ldiki, kelgusidagi ta'lim jarayonida autentik materiallarning salohiyatini yanada kengroq miqyosda tadqiq qilish va ularni yanada kengroq tatbiq etish zarurligi ma'lum bo'ldi. Ushbu materiallardan foydalanish strategiyalarini takomillashtirish, murakkab materiallarni talabalar darajasiga moslashtirish, shuningdek, ularning samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kelgusidagi tadqiqotlar uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brown J. W. Process and the authentic life: Toward a psychology of value. – Walter de Gruyter, 2013. – T. 11. – №. 4. – C. 128-132.
2. Akramovna T. U. et al. AN INTRODUCTION TO COMPETENCY-BASED LANGUAGE TEACHING INTO EDUCATION //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2023. – T. 11. – №. 4. – C. 128-132.
3. Kenjayeva D. S. AUTENTIK INTERNET VIDEO MATERIALLARI ORQALI INGLIZ TILI KOLOKATSIONLARINI O'RGATISH //Inter education & global study. – 2024. – №. 7. – C. 363-367.
4. Bektosheva D., Tajimbetova G. AUTENTIK MATERIALLARNING TIL O'ZLASHTIRISHGA TA'SIRI //Евразийский журнал академических исследований. – 2024. – Т. 4. – №. 4. – С. 18-20.
5. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press.
6. Ur, P. (2012). A Course in English Language Teaching. Cambridge University Press.